

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONSUZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDAGI O'QITUVCHI VA  
TARBIYACHINI KASB FAOLIYATI MAZMUNI

**Daminova Gulfiya Salim qizi**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang 'ich ta'lim yo 'nalishi talabasi*

**Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi**

*Ilmiy rahbar: TAFU "Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi"*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uzlusiz ta'lim tizimidagi barkamol shaxsni tarbiyalashda o'qituvchi va tarbiyachini faoliyati mazmuni yoritilgan. Bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyachilik malakalarini tarkib toptirishning nazariy-amaliy jihatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, tarbiyachi, o'quvchi, kasb faoliyati, ta'lim, tarbiya, uzlusiz ta'lim, uzlusiz tarbiya, uzlusiz ta'lim tizimi, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

Kirish. 2017–2021-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma'aviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari”ga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzlusizligi va izchilligini ta'minlash, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish taqozo etiladi. Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida innovatsion yondashuvlar, izlanishlar, tadqiqot muammolariga oid yechimlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar yaratildi. Oliy ta'lim tizimi uzlusiz ta'lim tizimiga — maktabgacha ta'lim, umumiyl o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, malaka oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim tizimi uchun mutaxassislar tayyorlab berar ekan, ularning kasbiy tayyorgarligi, ma'naviy-axloqiy qiyofqasiga, o'qituvchilarning tarbiyachilik darajasiga alohida talablar qo'yilmoqda. Uzlusiz ta'lim tizimida ishlaydigan har bir mutaxassis kasbiy pedagogik ma'lumotga ega bo'lish bilan cheklanmasdan, aynan shu yoshdag'i o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak mutaxassislar o'zlarini o'qituvchi sifatida emas, ixtisoslik sohasida kasbiy kamol topishga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Natijada bunday kadrlar pedagogik faoliyat yuritganda ixtisoslik fanidan chuqur bilim berishga harakat qiladi, lekin tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlarini, tamoyillarini, mazmun-mohiyatini, metodlari, vositalari va shakllarini professional darajada tatbiq etishga qiynaladilar. Ular uzlusiz ta'lim tizimida yoshlarga ustoz-murabbiy bo'la olishi, har tomonlama ibrat-namuna



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'rsatishi davr talabiga aylanmoqda. Shuning uchun ham uzlusizta'lim tizimi uchun o'qituvchi tayyorlashda bir qancha jihatlarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi: - o'qituvchi va tarbiyachi o'z fanini mukammal darajada bilish va amaliy faoliyatda tatbiq etishi; - psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollangan bo'lishi, milliy urf-odat, an'ana, qadriyatlardan xabardor bo'lishi; - o'zidagi shaxsiy-kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga yetkaza olish keraki; o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, tarbiyachi hamdir. O'zgalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'zi mukammal tarbiya ko'rgan, ma'naviy dunyosi boy, axloqiy qiyofasi pok, estetik didi yuqori, o'qituvchi va tarbiyachilarning, o'quvchi va tarbiyalanuvchilarga xos namuna bo'la olishi zarur. Hozirda uzlusiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning ma'lum bir qismi yuqoridagi talablarga to'la javob beradi deb bo'lmaydi. Ma'lumki, har bir darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi bo'lib, o'qituvchi maqsadlar katalogini ishlab chiqishda uning yechimiga amal qilishi zarur. Mamlakatimizda ta'limning uzlusizligi, ayni paytda, tarbiya jarayonining uzlusizligini ham ifoda etadi. Ta'lim jarayonida integratsiya bilim va ko'nikmalar majmuasini kengaytiruvchi manba vazifasini bajargan bo'lsa, tarbiya jarayoniga xos integratsiya uzlusiz tarbiya tizimini bog'lovchi mexanizm vazifasini o'taydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tatbiqi bilan bog'liqligi insoniyat tamaddunining avloddan-avlodga uzatuvchi axborot sivilizatsiyasi deb yuritilib kelmoqda. Mamlakatimizda ta'limning uzlusizligi, ayni paytda, tarbiya jarayonining uzlusizligini ham ifoda etadi. Ta'lim jarayonida integratsiya bilim va ko'nikmalar majmuasini kengaytiruvchi manba vazifasini bajargan bo'lsa, tarbiya jarayoniga xos integratsiya uzlusiz tarbiya tizimini bog'lovchi mexanizm vazifasini o'taydi. Buning uchun quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish lozim bo'ladi: - o'qituvchi-tarbiyachiga kasb faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratish; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mohiyatini belgilovchi o'quv-seminarlar, seminar-treninglar tashkil etish (yosh mutaxassislar va professor-o'qituvchilarga mo'ljallangan); - pedagogik faoliyatni takomillashtirish borasidagi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish; - uzlusiz ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchining tarbiyachilik faoliyati samaradorligini aniqlash. Ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tatbiqi bilan bog'liqligi insoniyat tamaddunining avloddan - avlodga uzatuvchi axborot sivilizatsiyasi deb yuritiladi. Bu o'rinda tarbiyachi - o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish tayanch vosita vazifasini o'taydi. Olib borilgan kuzatishlar natijasi barkamol shaxs tarbiyasi quyidagilarni o'z ichiga olishi aniqlandi.

Bular:

- yoshlarni kasbga to'g'ri yo'naltirish hamda ularni keljakdagi orzu-rejalarining ro'yogga chiqishida o'z hissasini qo'shish;
- tarbiya jarayonini aniq maqsadga muvofiq mazmunli (prosessual) tashkil etish;
- pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish;

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- o‘quvchi va talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy hamda estetik shakllanishiga e’tiborni qaratish;
- pedagogik jarayonda o‘quvchilarni va talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini ta’minlash;
- hozirgi kundagi globallashuv zamonida yoshlar ong-u shuurini yot va buzg‘unchi g‘oyalardan saqlashning oldini olishini mazmun-mohiyatini ishlab chiqish;
- o‘quvchi va talaba yoshlarda kitobxonlik fazilatini shakllantirishga e’tibor qaratish; - “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazida Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda talabalarni mustaqil hayotga, oila qurishning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishga tayyorlab borish, tegishli maslahat va tavsiyalar berish (yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash klublarini tashkil qilish) lozim;
- kafedra qoshidagi «ustoz-shogird» maktabi orqali yoshlar muammosini o‘rganuvchi tadqiqot ishlarini samarali olib borish;
- bo‘lajak pedagoglarda o‘z-o‘zini va kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash uyg‘unligiga erishish;
- ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning egallayotgan kasblariga bo‘lgan munosabati va kasbiy ko‘nikmalarining shakllanishiga e’tibor qaratish. Tarbiya bosh mezon sifatida inson xulq-atvori va haq-huquqini uyg‘unlashtiradi, uning majburiyatlarini to‘g‘ri yo‘naltiradi. O‘qituvchi tarbiyachi bu jarayonning mutaxassisasi sifatida uni amaliyot darajasiga olib chiqadi. Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy tarbiyashunoslik nazariyasi va amaliyotida innovatsion yondashuvlar, izlanishlar va tadqiqotlar olib borilayotganligi muammolariga oid yechimlar olib borilayotganligi va ilmiy-amaliy tavsiyalarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligi o‘qituvchi va tarbiyachini kasbiy faoliyati takomillashtirishni talab qiladi. Tahlil va muhokamalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi o‘quvchi va talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, tarbiyachining kasbiy faoliyatini rejalashtirishga tizimli va shaxsiy faoliyatli yondashuv talab etiladi. Tarbiyashunoslik nazariyasi va uning metodikasi o‘qituvchi-tarbiyachidan ilmiy-nazariy hamda metodik bilim va tajriba egasi bo‘lishni talab etadi. Nazariy bilimlarni amaliyot darajasiga olib chiqsa olgan o‘qituvchi-tarbiyachi kasbiy mahorat sirlarini egallah imkoniga ega bo‘ladi. Komil shaxs maqomiga yetishish orzusi, avvalo, oiladan boshlanadi. Insonning yoshi ulg‘aygan sari oilasi va jamiyatda tutgan mavqeyiga bo‘lgan mas’uliyati yanada ortadi. Tabiiyki, har qanday oila va uning vakili mukammal bo‘lish sari intiladi. Tarbiya jarayonining xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘qituvchi va tarbiyachining kasbiy faoliyati oila, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda rivojlanib boradi. Tarbiyashunoslik nazariyasi va amaliyotida ters aloqa mexanizmining ishlab chiqilishi tarbiya samaradorligini oshiradi hamda kafolatli natijaga erishishni ta’minlaydi. Tadqiqotga oid izlanishlar va ilg‘or pedagogik tajribalar o‘qituvchi-tarbiyachi kasbining, o‘z tabiatiga ko‘ra, hamisha ijodiy, yangilik va bunyodkorlikka boy bo‘lgan amaliy faoliyatdan iborat



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS**

ekanligini ko'rsatdi. Natijada o'qituvchi va tarbiyachining ko'z o'ngida mamlakat fuqarosi shakllanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Jalolov J.J Chet tilini o'qitish metodikasi: Chet tillar oliv o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. T.: O'qituvchi, 2012.

2.Nurumbekova Ya. Tarbiyachi kasb faoliyatida innovatsion texnologiyalar. - Guliston: Ziyo, 2012. - B. 22.

3.Кокорин О. С. Развитие коммуникативной компетенции: исторический аспект, URL: <http://aspirantura-olimpaida.narod.ru/ondex/0-85>. (дата обращения 01.11.2015)

